

**Malaka oshirish jarayonida maktabgacha ta'lim tashkiloti
rahbarlarining iqtisodiy kompetentligini shakllantirishning pedagogik
jihatlarini takomillashtirish imkoniyatlari**

Nigmatova Gulnora Nurxanbetovna

MTTDMQTMOI Maktabgacha ta'lim menejmenti

kafedrasi dotsenti v.b., PhD

Annotatsiya. *Iqtisodiy kompetentlik rahbarning murakkab iqtisodiy shart-sharoitlardagi mustaqil va ma'suliyatli tarzda iqtisodiy qarorlarni qabul qilishda yo'nalish topa olishga tayyorligini belgilaydi, buning natijasida tashkiliy masalalarni maqbul ravishda samarali hal qilishga qobiliyatini ta'minlab, ta'lim tashkilotining raqobatbardosh bo'lib qolishiga imkon beradi.*

Maktabgacha ta'lim tashkiloti rahbarining iqtisodiy kompetentligi uning kasbiy faoliyati xususiyatlari bilan belgilanadi va o'zida nazariy (iqtisodiy bilimlar), amaliy (xo'jalik faoliyati tajribalari), motivatsion tayyorlikni va mazkur faoliyatni amalga oshira olish qobiliyatini namoyon etib, bu moddiy, ijtimoiy-iqtisodiy va shaxsiy ahamiyatli bo'lgan mahsulotda – maktabgacha ta'lim tashkilotining barqaror faoliyat yuritishida o'z aksini topadi hamda biz uni rahbarning kasbiy kompetentligi elementlaridan biri sifatida olib qaraymiz, bu element turli xil murakkabliklardagi iqtisodiy masalalarni samarali hal qilishga imkon beradi.

Kalit so'zlar: *iqtisodiy kompetentlik, androgogik ta'lim dasturi, motivatsiya, Refleksiv bosqich, andragogik ta'lim, tizimlashtirish, mahorat.*

Pedagogikada shart-sharoitlar tadqiq qilinayotgan jarayon bilan birga boradigan ob'yektiv imkoniyatlar, holatlar va chora-tadbirlar jamlanmasi sifatida olib qaraladi. Ular ma'lum bir tartibda tuzimlangan va belgilangan maqsadga erishishga yo'naltirilgan.

Bizning tadqiqotlarimiz shuni ko'rsatdiki, quyidagi shart-sharoitlar yaratilsa,

maktabgacha ta'lim tashkiloti rahbarining iqtisodiy kompetentligi ijobiy shakllanadi:

- shaxs darajasida iqtisodiy kompetentligini rivojlantirishda rahbarning ta'limga bo'lgan ehtiyojlari;
- andragogik ta'lim dasturini amalga oshirish uchun modulli tizim;
- iqtisodiy kompetentlikni shakllantirishni monitoring qilish.

Birinchi tashkiliy-pedagogik shart-sharoit – bu maktabgacha ta'lim tashkiloti rahbarining shaxsiy darajada iqtisodiy kompetentlikni shakllantirishga ta'limiy ehtiyojidir. Psixologiyada asoslab berilganki, istalgan faoliyat turida, jumladan ta'lim faoliyatida ham dastlabki shart-sharoiti bo'lib shaxsning “ob'yekt yoki voqelik haqidagi vaqt davomidagi nisbatan barqaror qarashlari, tasavvurlari tizimi”, “individdning ma'lum bir tarzda u yoki bu hodisalarga moyilliklari” sifatidagi psixologik yo'l-yo'riqlari, tartiblari o'rtaga chiqadi. Rahbarda ijobiy motivatsiya, tayyorlikni mavjudligi shaxsning iqtisodiy kompetentligini shakllantirish jarayoniga ongli tarzda jalb etilishi va uning ijobiy o'zgarishini ta'minlab beradi.

Ikkinchi tashkiliy-pedagogik shart-sharoit – bu andragogik ta'lim dasturini amalga oshirishning modulli tizimidir. Mazkur shart-sharoit bir qator asoslarni ko'zda tutadi. Birinchidan, andragogik ta'lim dasturi barcha ta'lim jarayoni ishtirokchilari tomonidan ularning faoliyatidagi maqsad samarali faoliyatga motivatsion tayyorlikka ega bo'lgan, ma'lum bir tipdagi iqtisodiy masalalarni hal qila olishga, maktabgacha ta'lim tashkiloti rahbarining iqtisodiy kompetentligini rivojlantirishga qaratilganligi bilan ifodalanadi. Ikkinchidan, ta'lim beruvchi sub'yektt rolining o'qituvchilikdan (kasbiy ahamiyatli axborotlarni uzatishga urg'u berishdan) tyutorlik (katta yoshli kishining o'quv faoliyatini tashkil etuvchilik) tomonga qarab o'zgarishi.

Tyutor o'qitish jarayonidagi ayrim ishtirokchilarning o'ziga ishonchsizlik (hayiqish, qo'rqish) borasidagi ehtimoliy holatni tushunishga qobildir; bunda u o'qitish jarayonida har bir ishtirokchi uchun va umuman butun guruh uchun psixologik qulay muhitni yarata oladi, ta'lim oluvchilarning samarali faoliyatlarini

rejalashtiradi hamda tashkil eta biladi va h.k. Uchinchidan, andragogik ta'lim dasturida ta'lim sikli ta'lim oluvchilar uchun asl mohiyat jihatidan muammoli bo'lib sanaladigan vaziyatlar atrofiga quriladi. Bunda "kompetensiya detallashtirilishi o'qitish dasturiga kiritilmaydigan asosiy bilimlar va ifodalar poydevoriga quriladi". Ta'limning mazmuni muammoli bloklardan, sinov birliklar deb nomlanadigan modullardan iborat qilib tuzilmalanadi.

Uchinchi tashkiliy-pedagogik shart-sharoit – bu iqtisodiy kompetentlikning shakllantirilishini monitoring qilib borishdan iborat. Aytib o'tish kerakki, kompetensiyalar diagnostikasi – bu o'qitishning kompetentli modelini joriy qilishdagi eng murakkab masalalardan biridir. Jumladan, T.Y.Isayeva haqli ravishda ta'kidlaydiki, shaxsning boshqa ko'plab komponentlariga o'xshash holda kompetensiyalar ham to'la empirik qayd etishga bo'y beravermaydi. "Kompetensiya ba'zan chuqur tarkibiy qismlarini ko'rishga imkon bermagan holda uning murakkab tuzilmasining sirtida yotuvchi xuddi ma'lum bir qirralar bilan ochiladi".

Loyihalashtiruvchi bosqichda diagnostika ta'lim beruvchini va rahbarni kompetentlikning dastlabki modeli, malaka oshirishdagi ta'lim jarayoni davomida katta yoshli kishi hal qilishni o'rganish ixtiyorini bildiradigan muammolar haqidagi ma'lumotlar bilan ta'minlaydi. Ta'lim beruvchi diagnostika ma'lumotlari asosida ta'lim dasturini korreksiyalaydi (to'g'rilaydi), ta'lim oluvchi bilan birgalikda malaka oshirish maqsadlari va vazifalarini belgilaydi.

Korreksiyalovchi (to'g'rilovchi) bosqichda diagnostika ma'lumotlari amalga oshirilgan harakatlarning samaradorligini belgilashga imkon beradi, rahbarning ta'lim jarayoniga tayyor yoki tayyor emasligi haqidagi savolga javob beradi.

Shakllantiruvchi bosqichda iqtisodiy kompetentlikni shakllantirishning monitoring qilinishi jarayonining borishini va natijalarni kuzatib borishga, harakatlarning samaradorligini baholashga imkon beradi.

Refleksiv bosqichda iqtisodiy kompetentlikning shakllanganligi darajasini baholash nafaqat ta'lim beruvchi uchun, balki ta'lim oluvchining o'zi uchun ham ta'lim dasturini nazorat qilish va korreksiyalab borish vositasiga aylanadi. Oxirgi

vaziyatda natija rahbarning refleksiya uchun boshlang'ich qadam bo'lib sanaladi.

Umuman olganda, iqtisodiy kompetentlikni shakllanishini kuzatish, nafaqat iqtisodiy kompetentlikning shakllanish darajalari to'g'risida ma'lumot berish bilan birga, tashkiliy-didaktik modelni amalga oshirishning har bir bosqichidagi qiyinchiliklar mohiyatini aniqlashga, andragogik ta'lim dasturining o'quv mazmunini tuzatishga imkon beradi. Bu esa o'z navbatida rahbarning ta'lim ehtiyojlarini rag'batlantiruvchi refleksiya uchun asos bo'ladi.

Shunday qilib, pedagogik tajriba-sinov jarayonida aniqlangan tashkiliy va pedagogik sharoitlar bir-biri bilan chambarchas bog'liqligini isbotlash mumkin. Malaka oshirishning ta'lim jarayonida ushbu shartlarga rioya qilish, maktabgacha ta'lim tashkiloti rahbarining iqtisodiy kompetentliklarini shakllantirish uchun tashkiliy didaktik modelni samarali amalga oshirishga yordam beradi va shu bilan bizning o'rganish farazimizni tasdiqlaydi.

Istalgan ta'lim tizimi kabi malaka oshirish tizimini ham uning ochiqqligi, ko'p darajaliligi, ko'p pog'oniligi, ko'p funksiyaliligi, izchilligi, inersionligi, natijalarning kechiktirilganligi tavsiflaydi.

Shaxs umumiy va kasbiy salohiyatining o'sishidagi tashkiliy jarayon shaxsning va jamiyatning mos holdagi talab-ehtiyojlari bilan dolzarblashtiriladi, davlat va jamoatchilik institutlari tomonidan ta'minlanadi.

Uzluksiz ta'limning zarurligi ilm-fan va amaliyotdagi o'zgarishlar bilan shartlanadi. Jumladan, ayrim hisob-kitoblarga ko'ra, yangi bilimlarning o'rtacha yillik o'sishi sur'ati 6 % atrofida bo'ladi, shunga mos holda kasbiy bilimlarning 50 % atrofidagi qismini mutaxassis o'quv yurtini tugatganidan keyin olishi lozim. Uzluksiz ta'lim – bu zamonaviy mehnat bozorida mutaxassisning raqobatbardoshligini ta'minlashdagi muhim omildir. Hozirgi zamon sharoitlarida bu hodisa ta'limga reaktiv yondashuvdan ilgarilanma-oldini oluvchi (o'ta faol) yondashuvga rekurrent (qayta tiklanuvchi) ta'lim paradigmasining paydo bo'lishi, o'tish bilan bog'liqdir.

Katta yoshlilar ta'limi – ta'limning o'ziga xos turi bo'lib, mustaqil kasbiy faoliyat bilan band bo'lgan shaxslarning ta'limiy ehtiyojlari qondirilishini

ta'minlaydi. Tuzilmaviy jihatdan katta yoshlilar ta'limi turli xil tiplardagi (masalan, tadqiqotchilik markazlari, kurslar va treninglarni tashkil etuvchi firmalar hamda ta'lim muassasalari) o'qitadigan-o'rgatadigan, tashkil etadigan hamda ta'lim oluvchi sub'yektlar va ta'lim dasturlari orqali namoyon bo'ladi. Katta yoshlilar ta'limining zarurligi ijtimoiy va ilmiy-texnik taraqqiyot dinamikasi, mehnat mazmuni hamda xususiyatlaridagi va kishilarning ijtimoiy faoliyatidagi o'zgarishlar, bo'sh vaqtning ko'payishi va undan ratsional foydalanish zarurati kabilar bilan shartlanadi. Hozirgi vaqtda mana shunday turdagi ta'limga ehtiyoj ortayotganligi, mana shunga bog'liq holda iqtisodiyotning tuzilmaviy qayta qurilishi hamda bu bilan shartlangan qayta malakaga ega bo'lish zarurati, mehnatga layoqatli kishilarning sezilarli qismida qayta ta'lim olishga ehtiyojning ortishi kuzatilmoqda.

V.G.Zazikinining fikricha: Katta yoshli ta'lim oluvchining shaxsiy ("kasbdan tashqari Men") va kasbiy tarkibiy qismlari – "bu oddiygina bir butun narsa va uning qismi emas"; ular orasidagi aloqalarni o'zaro bir-biriga singib kirish deb tavsiflash mumkin[1].

S.I.Zmeyevning talqinicha, bir tomondan, kasbiy sifatlarni shakllantirish umumiy psixik rivojlanishga tayanadi, boshqa tomondan esa – kasbiy pozitsiya "boshqa kishining nafaqat harakatlarini, balki anglash uslubini ham belgilaydi" [2]. Jumladan, tijorat tashkiloti menejeri faoliyatining samaradorligi ko'p jihatdan foyda miqdori bilan belgilanib, bu unda qat'iylik, pragmatiklik, utilitar munosabat kabilarni shakllantiradi, ta'lim muassasasi rahbarining gumanistik-insonparvarlik, notijorat xususiyatdagi ish faoliyati esa boshqacha sifatlarni yuzaga keltirib, bunda shaxsiy sifatlar ko'p jihatdan uning kasbiy sifatlarini ham belgilab beradi.

O'qitish jarayonidagi yetakchi rol ta'lim beruvchiga emas, balki ta'lim olayotgan katta yoshli kishiga – ta'lim oluvchiga tegishli bo'ladi. A.K.Makarovanning ta'kidlab o'tishicha, katta yoshli ta'lim oluvchi o'zini mustaqil boshqariluvchan sub'yektt deb anglaydi [3]. Ta'lim beruvchining vazifasi bu yerda ta'lim oluvchidagi qiyinchiliklarni aniqlashda, uning shaxsiy tajribalarini tizimlashtirishda, shaklga keltirishda, uning bilimlarini to'g'rilashda, to'ldirishda,

mahoratni shakllantirishda va shu kabilarda yordam ko'rsatishdan iboratdir.

Asoslashga (mazmunga) bo'lgan ehtiyoj shunda namoyon bo'ladiki, bunda katta yoshli auditoriya berilgan kursni yoki bo'limni o'rganish nima uchun zarurligini asoslashga, uni bilmaslik qanday salbiy oqibatlariga olib kelishi mumkinligiga, bu materialni o'rganmasa, nima bo'lishiga diqqat bilan munosabatda bo'ladi.

Buning ustiga katta yoshli ta'lim oluvchilar o'zlariga taklif etilayotgan narsani o'rganishga kuch-g'ayrat sarflash kerakmi-yo'q degan savolga javobni aniqlashga, tushunib yetishga vaqt va kuchlarini ayamaydilar.

Bunday o'ziga xoslik kutishlarning ma'lum bir qarama-qarshiligini shakllantiradi: katta yoshli kishi olingan bilim va mahoratni iloji boricha tezroq sinab ko'rishni istaydi, biroq, unga muammoni hal qilishning tipik modellari yoki mahorat jamlanmasini shakllantiruvchi nazariy asos taqdim etiladi.

Bizning fikrimizcha, malaka oshirish tizimida taqdim etiladigan ta'lim xizmati – bu bir lahzalik, bir martalik tovar emasdir. Bu yerda gap aynan kompetentlikning o'sishi, keyinchalik amalga oshirilishi mumkin bo'ladigan bilimlar va qobiliyatlar tizimining shakllantirilishi haqida borishi zarur. Garchi, boshqacha shakllarda (chunki S.I.Zmeyer umuman barcha katta yoshlilarni o'qitishning o'ziga xosligini tadqiq qiladi) bu tamoyil o'z o'rniga ega bo'lsada, lekin bizning tadqiqot predmetimizga nisbatan buni tatbiq qilib bo'lmaydi.

Ma'lum bir tajribaga va sub'yekttli pozitsiyaga ega bo'lish bilan katta yoshli ta'lim oluvchi kishining o'zi o'qitish usuli hamda shakllarini o'zi baholashi va tanlab olishi mumkin. Bunday o'ziga xoslik qo'shimcha ta'lim dasturlarini tuzib chiqish (mavjud tajribani hisobga olmasdan ularni tuzib chiqish mumkin emas) va yangi bilimlar, mahorat, ishonchni shakllantirishning murakkabligini belgilaydi: taklif etiladigan model mavjud bilimlarga, ishonchga, amaliyotga mos kelmay qolishi ham mumkin. Buning ustiga, shunisi ham muhimki, mavjud tajriba boshqa ta'lim oluvchilar uchun bilimlar manbaiga aylanishi mumkin.

An'anaviy ta'limda va mos holdagi odatiy ta'limda o'quv materiali ilmiy bilishning mantiqiy tuzilmasi – “bilimdan –amaliyotga” mantig'i bilan mos holda

tuziladi. Malaka oshirish tizimida esa material boshqacha tarzda berilishi mumkin – tipik kasbiy ehtiyojlar atrofida jamlangan bo‘ladi.

Katta yoshli kishining o‘quv faoliyati bir qator omillar (ijtimoiy, maishiy va shu kabi) bilan determinatsiyalanib, ular o‘qitish jarayoniga yoki yordam beradi (masalan, oila otaning malaka oshirishini faol qo‘llab-quvvatlaydi), yoki unga qarshilik qiladi (masalan, oilada ona ko‘pincha maktabga kun uzog‘i yo‘qolib ketishiga qaramay yana dam olish kunlari ham qo‘shimcha o‘quv kurslariga qatnashiga qarshilik qilishi mumkin).

Tuzilmaviy nisbatda malaka oshirish tizimi mazkur tadqiqotda maqsad, vazifalar, mazmun, shakllar, metodlar, natija kabi elementlarning o‘zaro aloqadorligini namoyon qiladi.

Malaka oshirish tizimining maqsadini biz mutaxassisning kasbiy kompetentligini dolzarb darajada saqlab va qo‘llab-quvvatlab turishdan iborat deb bilamiz.

Shunday ekan, malaka oshirish jarayonida maktabgacha ta’lim tashkiloti rahbarlarining iqtisodiy kompetentligini rivojlantirishda amalga oshiriladigan vazifalar quyidagilardan iboratdir:

- o‘rnini qoplash (kompensatorlik) vazifasi – katta yoshli ta’lim oluvchiga ilgari mavjud bo‘lmagan yoki boy berilgan ta’limni istalayotgan darajada olishni taqdim etish;

- moslashuvchan (adaptatsion) vazifa – ijtimoiy-iqtisodiy shart-sharoitlar o‘zgarishi va kasbiy faoliyat funksiyalarining murakkablashuvi natijasida yuzaga keladigan ehtiyojlarga mos ravishda yangi bilimlarni taqdim etish, mahorat shakllanishiga ko‘maklashish;

- rivojlantiruvchi – individual-shaxsiy salohiyatni ijobiy o‘zgarishlariga ko‘maklashish.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Zazikin B.Г. Акмеографический поход в развитии профессионализма государственных служащих В.Г. Заикин. - М.: ПАГС, 1999. - 88 с.

2. Змеев S.I. Технология обучения взрослых : учебное пособие / СИ.

Змеев. - М. 2002. - 128 с.

3. Makarova I.K. Управление персоналом: учебник / И.К. Макарова. - М.: Юриспруденция, 2002. - 304 с.

4. Kubayevich, K. F., & Jaloliddinovich, R. A. Maqsdov Bunyod Abdusamat ugli, Sayfullayev Sirojiddin Soli ugli,.(2020). Econometric Analysis of Factors Affecting Commercial Bank Lending. International Journal of Advanced Science and Technology, 29, 2160-2166

5. Холмаматов, Ф.К. Ўзбекистон Республикаси банк тизимининг барқарорлигини ошириш йўллари. И.ф.д. илм. даражасини олиш учун дисс. автореферати. - Тошкент: ТМИ, 2024. – Б. 25.

6. Turg'unov S.T. Umumiy o'rta ta'lim muassasalari direktorlari boshqaruv faoliyatining nazariy asoslari: Dis. d-r ped.nauk.. – Toshkent., 2007. – 368 b.

7. Shaxmatova T.S. Теория и практика управления дошкольным образовательным учреждением : методическое пособие / Т.С.Шахматова // Дополнительные профессиональные образовательные программы: управление образованием / сост. Т.С.Шахматова, Е.В. Бускина. Новокузнецк : Изд-во МОУ ДПО ИПК, 2005. - С. 4 - 17.

8. Qurbonov Sh.E., Seytxalilov E. Ta'lim sifatini boshqarish. –Т.: “Turon-Iqbol”, 2006. -592 b.

9. Qo'ysinov O.A. Kompetentli yondashuv asosida bo'lajak o'qituvchilarning kasbiy-pedagogik ijodkorligini rivojlantirish texnologiyalari: p.f.d. (DSc) dis... materiallari - Toshkent: TDPU, 2019. – 161 b.

10. E-Learning: Erfolgsfaktoren und Einsatzkonzepte mit interaktiven Medien / ed. U. Dittler. Muenchen; Wien : Oldenbourg Verl., 2002. – 318 p.

11. Mohr A. T. Learning style preferences and the perceived usefulness of e-learning / A. T. Mohr, D. Holtbriigge, N. Berg. // Teaching in Higher Education. 2012. – Vol. 17. – № 3. – P. 309-322.